



ERONDA MO'G'ULLAR SULOLASI BOSHQARUVI DAVRI

Nazarov Obid Rahimovich
Shodiyev Shodiboy Zokirjon o'g'li
Guliston davlat universitei

Annotatsiya. *The first nomadic state organizations in Mongolia rose and fell in succession over a period of over 1,000 years before the ancestors of the modern Mongols appeared on the scene. Sources indicate that in the 10th-12th centuries, Mongol tribes inhabited the territory from the Great Wall of China to the upper reaches of the Selenga River.*

Annotatsiya. *Mo'g'uliston hududida ilk ko'chmanchi davlat tashkilotlari tarix sahnasiga zamonaviy mo'g'ullarning ajdodlari kelgunga qadar 1000 yildan ortiq vaqt navbatma-navbat yuksalib borishi jarayoni kuzatilgan edi. Manbalarda ko'rsatilishicha, X-XII asrlarda mo'g'ul qabilalari Buyuk Xitoy devoridan to Selenga daryosi yuqori oqimigacha bo'lgan hududlarda istiqomat qilishgan.*

Key words. *Hulagu, Iran, 1261 Golden Horde Trebizond Rome*

Kalit so'zlar. *Xulaku, Eron, 1261 Oltin, Orda, Trapezund, Rim*

Xulagu-xon o'zining butun qo'shini bilan Eronda qoladi. Xulagu-xon bu erda o'zboshimchalik tarzda o'zi va o'z avlodlari uchun o'ziga xos mo'g'ullar ulusini tuzadi. 1261 yilda buyuk xon Xubilay-qoon unga yangidan bosib olingan erlarga va mo'g'ullarning Erondagi eski mulklariga investitura ni yuboradi hamda elxon unvonini beradi.¹

Xulagular davlatiga 1258 yilda asos solindi, deb hisoblanadi. Shimolda Kavkaz tog' tizmasi Oltin O'rda bilan barqaror chegara bo'lgan. Kavkazortida Gruziya va Shirvonshohlar davlati Xulagu-xonning vassallari bo'lishgan. Qora dengiz bo'ylarida Xulagu davlatiga katta bo'lmagan grek-gruzin mulki, 1204 yilda tashkil topgan – Trapezund imperiyasi o'lpon to'lardi. G'arbda, Kichik Osiyoda, Saljuqiylarning Rum sultonligi ham Xulagularga vassal bo'lgan. Xulagulardan vassallik bo'ysunganlikni Kilikiyadagi Arman podshohlari ham tan olgan edi (1080— 1375), u Kichik Osiyoning janubi-sharqida joylashgan edi. Arman podshohlari keyinchalik Xulagularning Misr sultonligiga qarshi kurashida tayanch bo'lgan. Frot daryosi Suriya bilan tabiiy chegara rolini o'ynagan. Fors ko'rfazi esa janubdagi tabiiy chegara bo'lgan. Janubi-sharqda hind knyazliklari bilan quruqlikdagi chegara daryodan to Amu-Daryogacha cho'zilgan bo'lib, Termiz shahridan birmuncha sharqroqda o'tgan. Hozirgi Afg'onistonda Xulagularga vassal bo'lgan Kurtlar mulki joylashgan bo'lib, poytaxti Hirot shahri edi. Sharqda Amu-Daryo mo'g'ullarning Chig'atoy davlati bilan chegara edi. Shimolda, Urganchdan janubda, Kaspiyning sharqiy qirg'oqlarigacha Oltin O'rda bilan chegara mavjud edi. Kaspiy dengizi Xulagu davlatini shimoldan



yuqib turardi, faqat katta bo'lmagan, borish qiyin bo'lgan Gilon viloyati uzoq vaqt davomida o'z mustaqilligini saqlab qolgan edi.

Oltin O'rda, Chig'atoylar davlati va Misr va Suriyaning mamluklar sultonligi Xulagular davlatiga dushmanlarcha munosabatda edi. Misr, mamluklar gvardiyasidan ilgari suriladigan sultonlar hukmronligi ostida bo'lib, Yaqin Sharqdagi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan va nisbatan markazlashgan feodal davalati edi.

1261 yilda mamluklar o'zlariga Suriyani bo'ysundirishdi, 1291 yilda ular Falastindagi mamluklar Suriyani o'zlariga bo'ysundirishadi. 1291 yilda ular tomonidan xochtashuvchilarning Falastindagi so'nggi mulklari bosib olinadig. Bundan keyin Qohira va Aleksandriya G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo-sotiqda vositachi bo'lib qolishadi. Bu esa Misr uchun farovonlikning bir manbai bo'lib, 2 asr davomida daromad olib kelgan edi.

Suriyani bosib olmoqchi bo'lgan Xulagular davlatiga qarshi kurashda Misr sultonligi Oltin O'rda bilan munosabatlariga chek qo'ydi. Mamluk sultonlari "dinsiz" (kofir)larga qarshi "islom himoyachilari" rolini o'z zimmlariga olishdi. Kofirlar deb ular mo'g'ullar va xochtashuvchilarga atashardi.

Misr bilan urush Xulagularning Suriyadagi xochtashuvchilar bilan, Evropadagi xristian davlatlari bilan, ayniqsa Fransiya va Genuya bilan munosabatlarini uzoq davom ettirilishiga olib keldi. Dastlabki elxonlar davridayoq bir tomonlan ular va ikkinchi tomondan, Fransiya, Angliya va Rim papasi o'rtasida elchilik ayirboshlashlari mavjud bo'lib, uning maqsadi mamluklarga qarshi "Xudo tobutini qutqarish" uchun yagona ittifoq tuzishdan, ya'ni birgalikda Suriya va Falastinni bosib olishdan iborat edi. Suriya va Falastinni Xulagular o'zlarining xristian vassallari – xochtashuvchilarga berishga va'da bergan edilar.

Xulagular davlati tuzilgan va yashagan xalqaro vaziyat ana shunday edi. Uzluksiz va ko'p harajat talab qiladigan urushlar deyarli barcha chegara hududlarda olib borilgan bo'lib, Xulagular davlatining ichki siyosatiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

2. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.

3. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI:

REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 2(9), 11-27.

4. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

5. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

6. Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOYILLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 203-214.

7. Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXELOGIYASI TADQIQOTLARIDAN. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 192-202.

8. Vildanovich, G. S., & Davron o'g'li, A. D. (2025). MARKAZIY OSIYO XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA (1992–2009): MINTAQAVIY TIZIM OSTINING SHAKLLANISHI VA EVOLYUTSIYASI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(2), 338-341.

9. Abdumatov, A., & Aliboyev, D. (2024). SOME CONSIDERATIONS FROM THE HISTORY OF DEFENSE FACILITIES OF CENTRAL ASIA. *Ilm-fan va ta'lim*, 2(4), 19.

10. Davron o'g'li, A. D. (2025). INSON, ONG VA BORLIQ: FALSAFIY YONDASHUV. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(5), 462-467.

11. Kurambayev, B., & Freedman, E. (2020). Ethics and journalism in Central Asia: A comparative study of Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan and Uzbekistan. *Journal of Media Ethics*, 35(1), 31-44.

12. Хамидова, Х., & Мирзаева, Н. (2022). Хх аsr бoshларida mirzachol vohasidagi agrar o'zgarishlar (—Туркестанское сельское хозяйство жurnali asosida). *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 631-634.

13. Мирзаева, Н. Д., & Расулова, М. А. К. (2016). К вопросу о религиозном составе населения русских поселков в Голодной степи (начало XX века). *Проблемы современной науки и образования*, (11 (53)), 44-45.



14. Мирзаева, Н. (2011). Русские поселения Мирзачульского оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX–начале XX века. *Каталог авторефератов*, 1(1), 1-30.

15. Мирзаева, Н. Ж. (2025). XIX АСРНИНГ ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА МИРЗАЧЎЛ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИОН ЖАРАЁНЛАР. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 58-67.

16. OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

17. Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

18. Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.

19. Nazarov, O. R. (2020). THE ROLE OF HIPPOCRATES IN THE HISTORY OF WORLD MEDICINE. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(3), 66-64.

20. Nazarov, O. R., & Saydullayev, S. (2024). AVESTO. *EZGULIK TIMSOLIDIR. Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).

